

ZAMONAVIY OILA MODELIDA MAS’ULIYAT, BURCH VA HUQUQ MUTANOSIBLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-365-369>

Boqijonov Muhammadamin Jo‘rabek o‘g‘li

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Telefon: +998 90-409-15-19

Ilmiy rahbar: Saydaliyeva N.Z.

f.f.n., dotsent.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy oila modelidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, xususan, er va xotin o‘rtasidagi mas’uliyat, burch va huquqlarning mutanosibligi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosi sifatida Burhoniddin Marg‘inoniyning islom huquqshunosligidagi fundamental asari bo‘lmish “Al-Hidoya”dagi oila huquqiga doir qarashlar olingan.

Maqolada globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarining inqirozi, huquq va majburiyatlar muvozanatining buzilishi kabi muammolar o‘rganilib, ularning yechimi sifatida klassik fiqhiy manbalardagi adolat va insonparvarlik prinsiplari taklif etiladi. Shuningdek, asardagi nikoh, taloq, nafaqa va bolalar tarbiyasiga oid normalarning bugungi kungi dolzarbligi va ularning oila mustahkamligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Imom Marg‘inoniy, “Al-Hidoya”, oila modeli, huquqiy mutanosiblik, nikoh shartnomasi, nafaqa majburiyati, ayol huquqlari, ota-ona mas’uliyati, Islom huquqi (fiqh), ijtimoiy adolat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar.*

KIRISH

Globalashuv jarayonlari va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asrda jamiyatning fundamental asosi hisoblangan oila instituti jiddiy tarkibiy va funksional yangilanishlarni boshdan kechirmoqda. An’anaviy patriarxal oila modelidan zamonaviy, demokratik tamoyillarga asoslangan oila modeliga o‘tish jarayoni nafaqat ijtimoiy munosabatlar xarakterini, balki er-xotin o‘rtasidagi mas’uliyat, burch va huquqlarning taqsimlanish mexanizmlarini ham yangilamoqda. Bugungi kunda oilaviy munosabatlarda “shaxsiy manfaatlar” va “umumiy burch” tushunchalari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash dolzarb ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Oila instituti jamiyat bo‘g‘inining zaruriy qismi hisoblanib bu borada butun dunyoda 15- may “Xalqaro oila kuni” etib belgilanganligi so‘zimizning isboti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘zimizning isboti o‘laroq Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘larini keltirish lozim bo‘ladi. “Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, mahalla tinch bo‘ladi, mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi.”[3, 216].

Barchamizga ma’lumki, Islom dini nikoh orqali inson naslini ulug‘lash barobarida, or-nomus va nasl-nasabni saqlash hamda erkak-ayol sha’nini himoya qilishga ham jiddiy e’tibor qaratdi. Musulmonlar Islom ta’limotlarida keltirilgan ilohiy

ko'rsatmalarga qat'iy amal qilib yashashni o'zlariga sharaf deb bilganlar. Hozirgi globallashuv va turli “ommaviy madaniyat”lar ta'siri kuchayib borayotgan bir davrda, hatto musulmon o'lkalarida ham ba'zi bir fikri buzuq toifalar oila qurmay yoki nikohsiz yashashni o'zlariga ma'qul ko'rayotganlari achinarli holdir. Islom dinimizdan boshqa dinlar tarqalgan jamiyatlarda oxirgi yuz yillikda din faqat ibodatxonalarda bo'lishi kerak, boshqa ishlarga aralashmasin degan da'vo bilan chiqib, inson hayotining hamma sohalarida “yangicha” qarashlarni shakllantirmoqchi bo'ldilar[2, 3].

Zamonaviy oila modelida huquq va majburiyatlar muvozanatining buzilishi ko'p hollarda oilaviy nizolar, ajrimlarning ko'payishi va ijtimoiy beqarorlikka olib keluvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi ortishi va oilada “teng huquqlilik” tamoyilining keng yoyilishi an'anaviy qarashlar bilan to'qnash kelmoqda. Bu esa oila a'zolarining zimmasidagi ma'naviy-axloqiy burchlar va huquqiy majburiyatlar o'rtasidagi tafovutni chuqurlashtirmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun nafaqat huquqiy bilimni takomillashtirish, balki oila a'zolarining ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini yuksaltirish talab etiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunimizda ham ayrim jamiyatlarda oila qurish, nikohda bo'lishni qoloqlik va eskilik sarqiti sifatida baholash oddiy holga aylanib bormoqda. Oxir-oqibat kishilar boshiga ko'plab musibatlar yog'ilib, turli kasalliklar tarqaldi, oila nizomiga futur yetdi. Alaloqibat jamiyatda ijtimoiy aloqalar zaiflashdi, turli muammolar yuzaga kela boshladi[1, 4].

ASOSIY QISM

Bugun butun dunyo oila instituti inqiroziga, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug'ilishlar ko'payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolarga to'qnash kelyapti. Olimlar bunday muammolar millatning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkinligini ilmiy jihatdan asosladi.

Bu borada Abdurauf Fitrat: “Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”[2, 8] deb ta'kidlagan.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'zbek xalqining ma'naviyatini, jumladan, diniy savodxonligini oshirish jarayonida islom huquqining zarurligi, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga oid qoidalarini ilmiy tahlil qilish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. Chunki, islomda oilaviy munosabatlarga oid qoidalarining ijtimoiy mohiyatini tadqiq etish va hozirgi kunda ildiz otib borayotgan fundamentalistik oqimlarning bu boradagi qarashlari mutlaqo noto'g'ri ekanini va ijtimoiy salbiy oqibatlarini ilmiy tahlil qilish amaliy jihatdan o'ta muhimdir.

Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o'rin tutishini ko'ramiz. Masalan, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug'lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha'niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e'tibor qaratilgan.

Islomda er-xotin o‘rtasidagi munosabatning davomiyligini ta‘minlash uchun o‘ziga xos qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a‘zolari bo‘lmish er va xotinning har biriga o‘ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Bu haqda Qur‘onning bir qator suralarida oyatlar keltiriladi: “Alloh ba‘zilarini ba‘zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganlari uchun erkaklar ayollarga rahbardirlar”[4, 513] (Niso surasi, 34-oyat) va yana bir o‘rinda “Va yaxshilik ila ularning burchlari muqobilida haqlari ham bordir. Va erkaklarga ulardan ustun daraja bordir...”[5, 217] (Baqara surasi, 228-oyat). Agar er va xotin bu qoidalarga amal qilsa, bir-biriga nisbatan zimmasidagi burch va mas‘uliyatini his qilib sidqidildan ado etsa, bunday oila baxt va saodat qasriga aylanadi. Bunday oilada tug‘ilgan farzandlar ham go‘zal tarbiya topadi va ulardan jamiyatga foydasi tegadigan insonlar yetishib chiqadi. Islom dini har bir er va xotin uchun o‘ziga xos huquqlarni ishlab chiqish bilan birga, ularga muayyan majburiyatlarni ham yuklagan. Bularning ba‘zilari er va xotin o‘rtasida mushtarak bo‘lsa, ba‘zilari erga, ba‘zilari xotinga tegishlidir.

Qur‘on oyatlari va hadislarda belgilab berilgan, faqihlarimizning asarlarida bayon qilingan oilaviy munosabatlarga oid adolat, burch, majburiyat kabi tushunchalar, er-xotin, ota-ona va farzandlar, qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar, umuminsoniy axloq qadriyatlaridan kelib chiqqan asosiy talablar totalitar tuzum hukmronlik qilgan davrda buzib talqin qilingan. Shu bois islom huquqi normalarida oilaviy munosabatlarning umumijtimoiy jihatlari – ijtimoiy-tarixiy negizlari, madaniy-ma‘naviy va huquqiy xususiyatlari, islomning asosiy manbalari va klassik fiqhiy kitoblarning XII asrda yozilgan “Hidoya” asari asosida ilmiy tadqiq etilishi, odat huquqi bilan qiyosiy o‘rganilishi diniy-siyosiy, g‘oyaviy kurashlar ketayotgan hozirgi kun uchun o‘ta ahamiyatlidir. Chunki, islom huquqi hozirgi kunda odat huquqining bir turi sifatida qaralmoqda va uning xalqqa ta‘sir darajasi chuqur ekani barchaga ma‘lum. Oilada er va ayolning o‘ziga xos mushtarak burch va vazifalari mavjud bo‘lib ularni quyida batafsil bayon qilinadi.

Oilada erkakning o‘z ayoli oldidagi burchi ikki qism bo‘lib moddiy va ma‘naviy burchlardir. Moddiy burchlarga ayol kishining ta‘minoti nazarda tutiladi. Bu ayolga mahr berishdan boshlanib, oila qurilgach, uning barcha ehtiyojlari: yemak-ichmak, kiyim, maskan, agar qurbi yetsa, ayol uy yumushlarida qiynalib qoladigan bo‘lsa, uni yordamchi bilan ta‘minlash, uy jihozlari, ozodalik uchun kerakli anjomlar bilan ta‘minlash erkakning zimmasidagi burch hisoblanadi. U o‘z ayoli uchun bularni og‘rinmasdan amalga oshirishi zarur.

Ma‘naviy burchlar esa ayolga ilm berish, uning dinini mustahkam qilishdan boshlanib, ayolga yaxshi munosabatda bo‘lish, yaxshi yashash nazarda tutiladi. Qur‘oni karimda ham: **“Ularni zo‘rlilik-la ushlab turmang va ular ila yaxshilikda yashang...”**[4, 489], deb amr qilingan. Ayolini yerga urib, xo‘rlab, unga aziyat yetkazmaslik, bee‘tibor tashlab qo‘ymaslik ham erning ma‘naviy burchi hisoblanadi.

Ayol kishining o‘z eri oldidagi burchlarining asosi – eriga bo‘lgan itoatida. Erining ruxsatisiz nafl ro‘zasini tutmaslik, eri yoqtirmagan kishilarni uyiga kirgizmaslik, uydagi narsalarni uning iznisiz birovga bermaslik, erining sirlarini

muhofaza qilish, uydagi oila ahli, bola-chaqalarini muhofaza qilish ayolning oldidagi vazifalardir.

Er va xotin bir-birlarining iffatlarini saqlashlari muhimligi haqida aytib o‘tdik. Hozirgi kunda ba’zi bir erkaklar tomonidan bu narsa e’tiborga olinmasligi ko‘p kuzatilmoqda. O‘z ayollarini uzoq vaqt e’tiborsiz tashlab qo‘yish oqibatida ko‘p oilalarda er-xotin o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga chiqadi. Erkak boshqa ayolning aralashuvi yoki boshqa sabablar bilan uzoq vaqt xotinini e’tiborsiz qoldiradi – unga nisbatan adolatsizlik qiladi. Buning oqibatida ayolda tushkunlik kayfiyati, tabiatida, xulqida salbiy o‘zgarishlar yuz beradi. Ayolni nikoh asosida halolab olgach, bu jihatlargayam e’tibor berish kerak.

Hozirda er oldiga qo‘yilgan moddiy mas’uliyat – nafaqa masalasi ham asosiy muammoga aylanib qoldi. Oilada erkak o‘zini ustun hisoblasa ham ta’minot masalasiga kelganda qusurlari borligi ayon bo‘ladi. Shariatda uning ustunligi ta’kidlanadi, ammo qaysi jihatlari bilan ustun ekanliklari qayd etilgan. Odatda jamiyatimizda erkakning ustunligi uning zimmasiga yuklanadigan vazifalarda ekaniga ko‘pincha ko‘z yumiladi.

Alloh taolo o‘z oyati karimasida erkaklarning ikki narsa tufayli ustun ekanliklarini aytgan. Erkak zoti rahbarlikka munosibroq qilib yaratildi, chunki u o‘z oilasini tashqi ta’sirlardan himoya qilishga mas’ul etilgan. Jismoniy jihatdan ayoldan ko‘ra quvvatliroq bo‘lgani uchun ham shu vazifa unga berilgan. Bu faqat sharaf va martaba emas, balki mas’uliyatdir.

Ikkinchi jihat esa erkak oilada ta’minotni bo‘yniga olishi lozim. Shuning uchun ham oilada u rahbarlikka loyiq sanaladi. Lekin buni unutib, ishlamasdan, do‘st-birodarlari bilan vaqt o‘tkazib, chet elga ketib pul jo‘natmasdan turib, ayoldan ayollikni talab qilishadi va yana o‘zlarini ustun hisoblashadi. Ayolning ta’minotining zimmasida, unga pul topish, oila boqish zarurati yuklanmagan. Bu alohida e’tibor beriladigan, qayta-qayta tushuntiriladigan masala. Chunki buning oqibatida oiladagi voyaga yetayotgan bolalar ham aziyat chekishadi[1, 57].

Ikki tomon ham bir-birining yaqinlari, oila a’zolariga o‘zaro hurmatni saqlashi, yaxshi munosabatda bo‘lishlari kerak. Bu holat ko‘pincha erkaklar tomonidan buziladi. Ayol erning xonadoniga borgach, uning oila a’zolari va yaqinlarining hurmatini joyiga qo‘yadi, aks holda tezda nizo chiqadi. Shunga yo‘l qo‘yadigan ayollar ham uchraydi, bu esa erning ko‘nglini qoldirib, oraga sovuqchilik soladigan sabablardan biridir.

Afsuski, erkaklar tomonidan ayolning yaqinlarini kamsitish, ularga nisbatan hurmatni saqlamaslik ko‘payib ketyapti – bu aslo mumkin emas. Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v) ota-onasi mushrik bo‘lganlarning ham ota-onalari haqida yomon gap aytishdan qaytarganlar. Chunki bu insonning qalbini og‘ritadi.

Ayol o‘z ota-onasi, yaqinlari bilan ko‘rishishni istaganda er tomonidan taqiqlash, yo‘l bermaslik ham ko‘zga tashlanadi. Bu ham katta xatolardan biri bo‘lib ota-onaning maqomi qanchalik ulug‘ ekani ta’kidlanib, ularga yaxshilik qilishga buyurilgan. Shunday ekan, turmush qurish bunga monelik qilmasligi lozim. Qolaversa, dinimizda silai rahm ulug‘lanadi. Bordi-keldi chegaralangan taqdirda ham, ayolning yaqinlari bilan aloqani uzishga qarshilik bo‘lmasligi kerak.

XULOSA

Zamonaviy sharoitda oila modeli jiddiy transformatsiyalarni boshidan kechirmoqda, bu esa o‘z navbatida er va xotin o‘rtasidagi burch, mas’uliyat va huquq mutanosibligini yangicha tahlil qilishni talab etadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda oila mustahkamligi nafaqat moddiy ta’minotga, balki har bir a’zoning o‘z huquqlarini anglagan holda, o‘z zimmasidagi ma’naviy va ijtimoiy burchlarini ixtiyoriy ravishda bajarishiga bevosita bog‘liqdir. Muammoning asosiy yechimi sifatida shuni ta’kidlash lozimki, an’anaviy qadriyatlardagi o‘zaro hurmat tamoyillarini zamonaviy teng huquqlilik prinsiplari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Faqatgina bir tomonlama huquq talab qilishdan voz kechib, mas’uliyatni teng bo‘lishish va oilaviy munosabatlarda psixologik moslashuvchanlikni shakllantirish orqali jamiyatning ushbu kichik bo‘g‘inida barqarorlikka erishish mumkin. Binobarin, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar hozirgi kunga kelib o‘z o‘rnini yo‘qotib borayotgandek go‘yo. Ayniqsa, yaqin yillarda nikoh qurib, endigina oila atalmish ulug‘ qo‘rg‘onga qadam qo‘ygan yoshlar o‘rtasida nizolar, ziddiyatlar ko‘payib borishi jamiyatni bu masalada mushohada qilishga chorlaydi. Aksiga olib globallashuv davrida oila institutini yemirilib borishi keyingi avlodlarni otabobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarni yo‘qolib borishiga olib keladi. Bunga sabab tashqaridan kirib kelayotgan “yangicha madaniyatlar” ni azal-azaldan saqlanib qolgan qadriyatlar mezoniga taqqoslab ko‘rmasdan qabul qilinishi eng katta xatolardan biridir. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oila modelini takomillashtirish uchun yosh avlod ongida huquq va majburiyat tushunchalarini ajralmas bir butunlik sifatida talqin etish hamda ijtimoiy institutlar ko‘magida oilaviy rollarning aniq muvozanatini qaror toptirish zaruriy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. A’zamjon Qambarov, Ilhomjon Bekmirzayev. Hidoya sharhi bidoyatil muftadi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020. – J. II. – B. 591.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – B. 144.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 464.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2008. – J. I. – B. 637.
5. Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri Irfon. – Toshkent: Sharq, 2019. – J. I. – B. 735.